INKLYUZIV TA’LIMDA IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH VA TA’LIMDA UNIVERSAL DIZAYN YONDASHUVLARI ASOSIDA BAHOLASH

Matnazarova Nargiza Azimdjanovna,
Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” bo‘lim boshlig‘i
https://doi.org/10.5281/zenodo.17746587

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini baholash masalasi yoritiladi. Zamonaviy ta’limda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy-hissiy rivojlanish (hamkorlik, o‘zini boshqarish, empatiya, mas’uliyat) o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Biroq an’anaviy baholash tizimlari ushbu jihatlarni yetarli darajada qamrab olmagan. Shu bois, baholashda ta’limda universal dizayn (TUD) tamoyillariga asoslangan yondashuvni qo‘llash zarurati mavjud.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, universal dizayn, TUD, baholash, empatiya, refleksiya, kompetensiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, adolatli ta’lim.*

Оценивание на основе подходов социально-эмоционального развития и универсального дизайна в инклюзивном образовании

Матназарова Наргиза Азимджановна,
Заведующий отделом “Социально-гуманитарных наук” Научно-практического центра “Педагогическое мастерство и международная оценка”

Аннотация: *В данном исследовании рассматривается вопрос оценки социально-эмоционального развития учащихся в условиях инклюзивного образования. В современной системе образования наряду с знаниями, навыками и компетенциями социально-эмоциональное развитие (сотрудничество, саморегуляция, эмпатия, ответственность) рассматривается как неотъемлемая часть учебного процесса. Однако традиционные системы оценивания недостаточно охватывают эти аспекты. В связи с этим существует необходимость применения подхода к оценке, основанного на принципах Универсального дизайна в образовании (УДО).*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, социально-эмоциональное развитие, универсальный дизайн, УДО, оценивание, эмпатия, рефлексия, компетенции, социальные навыки, справедливое образование.*

Assessing social-emotional development through universal design for learning in inclusive education

Matnazarova Nargiza Azimjanovna,
Head of the “Social and Humanitarian Sciences” Department scientific-practical center for Pedagogical Mastery and International Assessment

Abstract: *This study addresses the assessment students’ social-emotional development in inclusive education settings. In modern education, social-emotional development as encompassing collaboration, self-regulation, empathy, and responsibility is recognized as an integral part of the learning process alongside knowledge, skills, and com-*

petencies. However, traditional assessment systems often fail to adequately address these aspects. Therefore, there is a pressingneed to adopt an assessment approach based on the principles of Universal Design for Learning (UDL).

Keywords: *inclusive education, social-emotional development, universal design, UDL, assessment, empathy, reflection, competence, social skills, equitable education.*

Bugungi globallashuv davrida ta’limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki har bir o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni teng imkoniyatlar asosida ta’lim jarayoniga jalb qilishni taqozo etadi. Shu bois, inklyuziv sinflarda ijtimoiy-hissiy rivojlanishni baholash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan, jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki hissiy nuqsonlarga ega o‘quvchilar uchun ta’lim muhitini teng imkoniyatlar asosida tashkil etish tizimidir. Uning bosh g‘oyasi “har bir bola o‘qishga haqli” tamoyiliga asoslanadi. Inklyuziv ta’limda asosiy e’tibor o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini moslashtirish, o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat [9].

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish (IHR) – bu o‘quvchining o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, hamdardlik bildirish va ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Inklyuziv ta’limda IHR o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga moslashuvini, o‘ziga ishonchini, jamoada faol ishtirokini hamda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi [4].

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

a) O‘zini-o‘zi anglash – o‘quvchining o‘z kuchli va zaif tomonlarini bilishi, hissiyotlarini tahlil qila olish qobiliyati;

b) O‘zini-o‘zi boshqarish – stress, g‘azab yoki xavotirni boshqarish, o‘z harakatlarini ijobiy yo‘naltirish;

d) Ijtimoiy xabardorlik – boshqalarning hissiyotlari va ehtiyojlarini tushunish, bag‘rikenglikni rivojlantirish;

e) Munozara va hamkorlik ko‘nikmalari – ijtimoiy muloqot madaniyatini shakllantirish;

f) Mas’uliyatli qaror qabul qilish – axloqiy, hissiy va ijtimoiy jihatdan muvofiq tanlovlar qilish:

Inklyuziv ta’lim muhitida ushbu komponentlar o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki psixologik hamda ijtimoiy barqarorligini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ijtimoiy-hissiy rivojlanish ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [8].

Ta’limda universal dizayn (Universal Design for Learning – UDL) – bu barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘qitish jarayonini moslashtirish tamoyilidir. UDL yondashuvi dastlab AQShda ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda dunyo bo‘ylab inklyuziv ta’limning samarali modeli sifatida tan olingan. Uning mohiyati shundan iboratki, ta’lim jarayoni biror “standart o‘quvchi”ga emas, balki turli o‘quv ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun birdek qulay sharoit yaratishga qaratiladi.

UDL uch asosiy tamoyilga tayanadi:

1. Turli taqdim etish usullari (*representation*) – o‘quv materiallarini vizual, eshitish, kinestetik va raqamli shakllarda taqdim etish;

2. Turli ifoda imkoniyatlari (*expression*) – o‘quvchilarga o‘z bilimini yozma, og‘zaki, amaliy yoki raqamli shaklda namoyish etish imkonini berish;

3. Turli darajadagi ishtirok va motivatsiya

(*engagement*) – o‘quvchilarni o‘qishga jalb etuvchi mos metodlar, o‘yinlar, loyiha ishlari hamda refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etish.

Bu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatga erishishi mumkin [2].

Baholash – ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash bilan birga, ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasini ham o‘lchash imkonini beradi. Inklyuziv ta’lim sharoitida, baholash tizimi an’anaviy test va nazorat usullaridan farqli ravishda moslashuvchan, ko‘p mezonli va rivojlantiruvchi xarakterda bo‘lishi kerak.

Baholashning asosiy yo‘nalishlari:

a) Formativ baholash – o‘qish jarayonining o‘zida o‘quvchi yutuqlarini kuzatish va tezkor teskari aloqa berish.

b) Fummativ baholash – ma’lum davr yakunida o‘quv natijalarini umumlashtirish.

d) O‘zini baholash va o‘zaro baholash – o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mas’uliyatni shakllantirish.

e) Ijtimoiy-hissiy baholash – o‘quvchining muloqot, hamkorlik, empatiya, o‘zini ifoda etish hamda konfliktni boshqarish ko‘nikmalarini aniqlash.

Baholash jarayonida rubrikalar, kuzatuv varaqalari, portfolio, refleksiya daftarlari, ijtimoiy holatlar bo‘yicha tahlil kabi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, baholashda o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy rivojlanish yo‘lini hisobga olishi, ularni bir-biri bilan solishtirmasligi, balki har bir o‘quvchining individualligini qadrlashi lozim.

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit yaratishi, ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etishi zarur.

O‘qituvchilarning asosiy kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

• inklyuziv pedagogika va UDL tamoyillarini bilish;

• differensial yondashuv asosida darsni rejalashtirish;

• o‘quvchilarning hissiy holatini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash;

• ijtimoiy o‘rganish muhiti yaratish;

• refleksiv tahlil va diagnostika o‘tkazish.

O‘qituvchi va psixologning hamkorligi bu jarayonda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarning individual rivojlanish kartasini yuritadi, ijtimoiy-hissiy ko‘rsatkichlarni baholaydi va o‘qitish strategiyasini moslashtiradi [3].

UDL va IHR integratsiyasi o‘quv jarayonini nafaqat akademik, balki psixologik jihatdan ham samarali qiladi. Bu integratsiya quyidagi amaliy yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

a) Moslashtirilgan o‘quv materiallari (audio, vizual grafikalar);

b) Kooperativ o‘qitish – turli imkoniyatdagi o‘quvchilarni jamoaviy topshiriqlarga jalb etish;

d) Hissiy qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatlar – meditatsiya, “emotsiyalar kundaligi”, rolli o‘yinlar;

e) Raqamli vositalar – interaktiv dasturlar, o‘yin asosida o‘qitish (gamifikatsiya);

f) Differensial topshiriqlar – bir mavzuni turli darajadagi murakkablik bilan o‘rganish imkoniyati.

Natijada, o‘quvchilar o‘zini qadrlangan, tushunilgan va muvaffaqiyatli his qiladi, bu esa ularning o‘quv motivatsiyasini yanada kuchaytiradi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yondashuvi o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, hamkorlik va empatiya kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarning

rivojlanishi o‘quvchilarning o‘quv natijalariga, ijtimoiy moslashuviga hamda kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy baholash tizimi esa ushbu jihatlarni yetarlicha qamrab olmaydi [6].

Ta’limda universal dizayn yondashuvi ta’limni barcha o‘quvchilar uchun qulay qilishga, o‘quv jarayonini ko‘p tarmoqli usullar orqali tashkil etishga va baholash jarayonida turli ehtiyojlarga ega bolalarning imkoniyatlarini teng qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv baholashda nafaqat akademik natijalarni, balki ijtimoiy-hissiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ham adolatli hamda shaffof tarzda aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son qarorida [1] barcha bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun ta’lim muhitini teng imkoniyatli qilish, ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy-hissiy rivojlanishni baholashning universal dizayn asosidagi yangi metodikasini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirokini ta’minlash, ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda inklyuziv muhitni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi esa inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini adolatli, ko‘p tarmoqli va imkoniyatlarni teng qo‘llab-quvvatlovchi tarzda baholash uchun universal dizayn tamoyillariga asoslangan metodik modelni ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o‘tkazishdir. Maqolaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holatda uning qamrovini quyidagicha shakllantirish mumkin:

1) Ijtimoiy-hissiy rivojlanishning tarkibiy ko‘rsatkichlarini (o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat, hamkorlik, empatiya) inklyuziv ta’lim kontekstida aniqlash;

2) Baholash jarayonini an’anaviy akademik yutuqlar bilan chegaralab qo‘ymasdan, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qamrab olish;

3) Ta’limda universal dizayn tamoyillariga asoslangan holda barcha o‘quvchilar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun mos, ochiq hamda adolatli baholash tizimini yaratish:

Yuqorida keltirib o‘tilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun bizga ushbu metodologik asoslar kerak bo‘ladi:

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi – barcha bolalarning teng imkoniyatlar asosida ta’lim olishini ta’minlash;

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish (SEL – Social Emotional Learning) modeli orqali o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat, empatiya va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish;

Ta’limda universal dizayn yondashuvi (TUD) – ta’lim hamda baholash jarayonini barcha o‘quvchilar uchun qulay, adolatli va moslashtirilgan shaklda tashkil etish;

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish;

Tizimli yondashuv – ta’lim jarayonida o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish.

Ushbu maqola, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini adolatli va imkoniyatlarni teng qo‘llab-quvvatlovchi tarzda baholash tizimini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

hali maktablarda tajriba-sinovidan o'tkazilmagan bo'lsa-da, nazariy asoslar hamda metodologik yondashuvlar asosida quyidagi kutilayotgan natijalar ilgari suriladi:

• Ta'limda universal dizayn tamoyillariga asoslangan baholash modeli takomillashtiriladi, bu model o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanish jihatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

• Ijtimoiy-hissiy rivojlanishning asosiy tarkibiy ko'rsatkichlari (o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy mas'uliyat, empatiya, hamkorlik)ni baholash uchun diagnostik indikatorlar, rubrikalar va ko'p tarmoqli topshiriqlar to'plami shakllantiriladi.

An'anaviy akademik baholash tizimidan farqli o'laroq, taklif etilayotgan yondashuv:

1. Barcha o'quvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun adolatli, moslashtirilgan va ochiq baholash muhitini yaratishga xizmat qiladi;

2. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

3. Baholashni faqat natijaga emas, balki jarayonga yo'naltirishga imkon beradi.

O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar va amaliy qo'llanmalar tayyorlanadi, bu vositalar ularning ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni aniqlash, rivojlantirish hamda baholash borasidagi faoliyatini tizimlashtirishga yordam beradi.

Taklif etilayotgan modelning amaliy joriy etilishi natijasida:

• Inklyuziv sinflarda ta'limga qamrov, o'zaro hurmat, hamkorlik va ijtimoiy uyg'unlik darajasi ortishi kutiladi;

• O'quvchilar o'zlarini sinfning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi, bu esa ularning motivatsiyasi, ishtiroki va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida ijtimoiy-hissiy rivojlanishni baholashga oid milliy yondashuvni ishlab chiqishga ilmiy asos yaratiladi. Inklyuziv ta'limda ijtimoiy-hissiy rivojlanish va universal dizayn yondashuvlarini uyg'unlashtirish ta'lim tizimining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yondashuv nafaqat nogironligi bo'lgan o'quvchilar, balki barcha o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishini, o'ziga ishonchini va jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'limda baholash faqat akademik natijalarni emas, balki o'quvchining shaxsiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini ham qamrab oluvchi tizim sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalar chiqariladi:

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish – o'quvchilarning o'zini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali munosabatlar o'rnatish, empatiya va mas'uliyatni his etish kabi muhim ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy hayotga integratsiyasi uchun zarurdir [5].

Mavjud an'anaviy baholash tizimlari ijtimoiy-hissiy rivojlanish ko'nikmalarini yetarlicha qamrab olmaydi. Bu esa, alohida ehtiyojga ega o'quvchilarning rivojlanishini baholashda noaniqliklar va adolatsiz yondashuvlarga olib keladi.

Ta'limda universal dizayn yondashuvi asosida ishlab chiqilayotgan baholash modeli o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni teng imkoniyatlar asosida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv o'zini-o'zi baholash, refleksiya va shaxsiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ishlab chiqilayotgan rubrikalar, indikatorlar va ko'ptarmoqli baholash vositalari o'qituvchilar uchun amaliy jihatdan qulay bo'lib, inklyuziv ta'lim muhitini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar asosida, quyidagi tavsiyalarni ham keltirib o'tish mumkin:

• Maktab amaliyotida ijtimoiy-hissiy rivojlanishni baholashga doir metodik vositalar (rubrikalar, indikatorlar, kuzatuv jadvallari)ni joriy qilish tavsiya etiladi.

• O‘qituvchilarni ijtimoiy-hissiy rivojlanish va ta’limda universal dizayn yondashuvlari asosida baholash metodikasi bo‘yicha o‘qitish kurslari hamda seminarlar orqali tayyorlash zarur.

• Ota-onalar va sinfdagi barcha ishtirokchilarni (o‘qituvchi, psixolog, logoped, defektolog) baholash jarayoniga jalb qilish, ularning fikr-mulohazalarini hisobga olish orqali ijtimoiy-hissiy baholashning samaradorligini oshirish mumkin.

• Fanlararo integratsiya tamoyillariga asoslanib, ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni barcha fanlarda baholash imkonini beradigan yagona yondashuv ishlab chiqilishi lozim.

Kelgusida ushbu modelni pedagogik tajriba-sinovlar asosida maktablarda qo‘llab ko‘rish va real natijalarni tahlil qilish tavsiya etiladi. Ta’lim siyosati darajasida ijtimoiy-hissiy rivojlanishni baholash mezonlarini normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son qarori.

2. Amirsaidova Sh.M. Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g‘oyalarining o‘rni va roli. Ped. fan. nom... diss. – T.: 2006.

3. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. Ta’lim metodlari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Navro‘z”, 2017.

4. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim: uslbuiy qo‘llanma. – T.: “Chashma print”, 2011. – B. 213.

5. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация // “Проблема дефектологии”. – М.: 1996. – С. 42.

6. Mo‘minova L., Sh.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013.

7. Инклюзивное образование в Испании. Пашкова. М, Скуднова. Т.Д.2018.?

8. Кукушкина О.И. Коррекционная (специальная) педагогика: педагогический энциклопедический словарь. – М.: 2002.

9. Колесникова Г.И., Кабарухина И.А. Специальная психология и педагогика. – Ростов на-Дону. 2007.

10. Gess LeBlanc, Tim Fredrick // Who‘s In My Classroom? Building Developmentally and Culturally Responsive School Communities // Wiley 2021. 320 p.